

---

## **Stylistic features of dialectisms in Turkish folk songs**

**Muminova Nilufar Toshpulot qizi**  
Uzbekistan State World Languages University

**Annotation** *This article analyzes the stylistic features of dialectisms found in the language of Turkish folk songs. It highlights that dialectisms, as an integral part of the national language, perform important functional roles in literary texts. Using examples from Turkish folk songs, phonetic, grammatical, and lexical dialectisms are examined and analyzed.*

**Keywords** *Dialectism, folk songs, dialect, phonetic dialectism, grammatical dialectism, lexical dialectism, stylistics*

---

## **Turk xalq qo'shiqlarida uchraydigan dialektizmlarning uslubiy o'zgachaliklari**

**Muminova Nilufar Toshpulot qizi**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada turk xalq qo'shiqlari tilida uchraydigan dialektizmlarning uslubiy o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Dialektizmlar umumxalq tilining ajralmas qismi sifatida badiiy matnda muhim funksional vazifalarni bajarishi yoritiladi. Turk xalq qo'shiqlari misolida fonetik, grammatik va leksik dialektizmlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar** *Dialektizm, xalq qo'shiqlari, sheva, fonetik dialektizm, grammatik dialektizm, leksik dialektizm, uslubiyat*

---

## **Стилистические особенности диалектизмов в турецких народных песнях**

**Муминова Нилуфар Тошпулот кизи**  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

**Аннотация** *В данной статье анализируются стилистические особенности диалектизмов, встречающихся в языке турецких народных песен. Показано, что диалектизмы как неотъемлемая часть общенационального языка выполняют важные функциональные задачи в художественном тексте. На примере турецких народных песен рассматриваются и анализируются фонетические, грамматические и лексические диалектизмы.*

**Ключевые слова** *Диалектизм, народные песни, диалект, фонетический диалектизм, грамматический диалектизм, лексический диалектизм, стилистика*

### Kirish

Dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo'lib, asosan, jonli so'zlashuv nutqiga xos leksemalar va iboralar, grammatik shakllar hisoblansa-da, ularning badiiy adabiyotda o'ziga xos o'rni bor (Normurodov, 2000).

Tilshunoslikka oid ko'pgina tadqiqotlarda dialektizmlarni umumxalq tili doirasidagi birliklar sifatida qaralib kelingan va adabiy til me'yoriga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralangan holatlarda qo'llanilishi haqida fikrlar yuritilgan (Fayzullayev, 1979).

Binobarin, dialektizmlardan foydalanish orqali san'atkorlar personajlar nutqini individuallashtiradi, mahalliy koloritga xos nutq yuzaga keltiradi hamda qarhramonlar holatini chizib berish uchun ham ularni qo'llashga e'tiborni qaratadi. Shu bilan birga, dialektal so'z va iboradan foydalanishda chegara bo'lishi, nutqda suiiste'mol qilishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida qayg'urishlari lozim.

Badiiy asar tilida uchraydigan dialektizmlarni o'rganish orqali har bir san'atkorning umumxalq tili boyligidan qanday, qay holatda, nima maqsadda foydalanganini uning talanti va mahhoratiga qarab belgilaymiz. Chunki dialektizmlar badiiy adabiyot tilida turli xil vazifalarni bajarishi mumkin.

Turk xalq qo'shiqlari tabiati jihatidan xalqqa tegishli ijod namunasi bo'lganligi uchun ham unda ham leksik, ham grammatik dialektlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, xalq qo'shiqlari dialektlarni o'zida mujassam etgan badiiy matnning yorqin ifodasidir.

### Adabiyotlar tahlili

Turkiyada turk tili dialekti va shevalari mavzulari doirasida ko'pgina tadqiqot ishlari olib borilgan. Turkiyada dialektga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot ishi I. Kunosga tegishli bo'lib, u Onado'lidagi sheva

guruhlarini bir-biridan farqlaydi va quyidagi guruhlariga bo'ladi:

1. Izmir bilan Bursa oralig'idagi Zeybekcha;
2. Kastamonu shevasi;
3. Qoradengizning sharqiy qirg'oqlari tomonidagi Lazja;
4. Harputcha;
5. Janubiy-sharqiy Onado'lida Mersin bilan Koniya o'rtasidagi Karamanlija;
6. Qizilirmoq havzasidagi Anqara shevasi;
7. Onado'lida tarqalib istiqomat qilgan yoruk va turkmanlar (Kowalski, 1931).

Lekin Kunosning ushbu shevalarni guruhlantirish tadqiqoti hech qanday ilmiy manbaga tayanmagan. Yana boshqa bir shevalarni sinflarga ajratish ishi A. Jafaro'g'li tomonida amalga oshirilgan. U 1946-yil yozgan maqolasida, shaxsan o'zi to'plagan manbalarga tayanib Onado'lida ushbu sheva guruhlarining borligiga ishora qiladi:

1. Sharqiy viloyatlar sheva (Kars, Elazig', Van va uning atrofi, Malatya) hududi;
2. Erzurum, Trabzon, Qisman Riza sheva hududi;
3. Sivas, qisman Tokat viloyati sheva hududi;
4. Amasya, Chorum, Anqara, qisman Yozgat shevalari hududi;
5. O'rta Anado'li (Qaysari bilan birlikta) sheva hududi;
6. Gaziantep (shuningdek, shimoliy chegaralardagi shevalar) sheva hududi;
7. G'arbiy viloyatlar sheva hududlari (Eskishahar, Balikeser, Manisa, Izmir, qisman Afyon, Aydin va Antalya gacha);
8. Koniya sheva hududi;
9. Kastamonu sheva guruhi

A. Jafaro'g'li keyingi maqolasida ushbu guruhlantirishni yana ham muhtasar bir shaklda, 6 ta guruhga bo'ladi (Cafero'glu):

1. Janubiy-g'arbiy hududlari shevalari (Bandirmadan Antalya atroflarigacha);
2. O'rta Onado'li shevasi (Afyondan Elazig' va Erzurumga qadar);

3. Sharqiy hududlar shevasi (Elazig' va Erzurum chegaralarigacha);
4. Shimoliy-sharqiy hududlar shevasi (Samsundan Rizega qadar);
5. Janubiy-sharqiy hududlar shevasi (Gaziantep, Adana, Antalya va uning atroflari);
6. Kastamonu.

Ushbu mavzu doirasida eng so'nggi qilingan tadqiqot ishlaridan biri bu L. Karahanning "Anadolu Ağızlarının Sınıflandırılması" ("Onado'li shevalarining klassifikatsiyasi") nomli ilmiy ishidir (Karahana, 2014). L. Karahana ushbu tadqiqot ishida Onado'li shevalarining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqib ularni 3ta katta guruhga bo'ladi:

- **Sharqiy hudud shevalari:** *Ag'ri, Artvin markaziy qismi bilan birgalikda Shavshat, Ardanuch va Yusufeli, Bingo'l, Bitlis, Diyorbakir, Elazig', Erzinjan, Erzurum, Kumushxona, Hakkari, Kars, Mardin, Mush, Siirt, Tunjeli, Urfa, (Birejik va Halfatidan tashqari), Van;*
- **Shimoliy-sharqiy hudud shevalari:** *Hopa, Borchka, Arhavi (Artvin), Rize va Trabzon;*
- **G'arbiy hudud shevalari:** *Adana, Adiyaman, Afyon, Amasya, Anqara, Antalya, Aydin, Balikeser, Bartin, Bilecik, Bolu, Burdur, Bursa, Chanakkale, Gaziantep, Giresun, Hatay, Isparta, Ichel, Izmir, Izmit, Kahramanmaraş, Kastamonu, Kayseri, Kirshahar, Koniya, Kutahya, Malatya, Manisa, Mug'la, Nevshahar, Nig'de, Ordu, Sakarya, Samsun, Sinop, Sivas, Tokat, Ushak, Yozgat, Zonguldak.*

Ushbu tadqiqot ishida L. Karahana har bir guruh shevalarining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini, ularning o'xshash farqli jihatlarini yoritib bergan.

Mazkur tadqiqot ishimizni yozishda biz L. Karahanning mazkur tadqiqot ishini asos qilib olamiz va undagi shevalar klassifikatsiyasiga tayanamiz.

Ma'lumki, "dialektizmlar – bayon etish uslubi sifatida badiiy adabiyot tilida foydalaniladigan dialektik so'zlar"dir (Akhmanova, 1966). Ular badiiy asar tilining boy, jozibador va ta'sirchan bo'lishida muhim o'rin egallovchi vositalardan biri sifatida ma'lum bir ijodkor asarlarida voqelanadi. Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo'lgan original so'zlar faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzui bo'lib qolmay, balki muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi. Dialektal so'zlarning o'ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy tekseda ma'lum darajada qo'llanishi qonuniy hodisadir. Shunga ko'ra, bunday dialektal so'zlarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali asosida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi (Doniyorov, 1990).

Dialektizmlar bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan B. Fayzullaevning fikricha, ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birkimlari dialektizmlardir (Fayzullayev, 1977). Tilshunos olim bu boradagi fikrini davom ettirib, yana bir ishida dialektizmlarning ham xalq tilining ma'lum bir shoxobchasi ekanligini, undan bahramand bo'lmagan badiiy asar keng o'quvchilar ommasini tomonidan yaxshi kutib olinmasligi, chunki tilning xalqchilligi asarning xalq bilan yaqin aloqasini belgilashini yozadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da dialektizmning umumiy adabiy tilga dialektlardan kirgan so'z ekanligi ta'kidlangan.

Dialektizm umum tilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisadir; shunga ko'ra bular, odatda, biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha, boshqa dialektning vakillariga, shuningdek, adabiy tilga ham xos bo'lmaydi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. Fonetik dialektizmlar, asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Leksik dialektizmlar ham, o'z navbatida, ichki guruhlariga bo'lib o'rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deb yuritiladi. Biror so'z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo'lib, shevaga adabiy tilda bo'lmagan ma'nosi bilan qo'llana oladigan so'zlar semantik dialektizmlar deb yuritiladi. Grammatik dialektizmlarning ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish lozim. Sheva xos iboralar ham mavjud bo'lib, badiiy matn qahramonlarining ma'lum bir hududga mansubligini va voqea-hodisalar bo'lib o'tayotgan o'rinni ta'kidlashga xizmat qiladi.

Dialektizmga berilgan ta'riflar, bu borada bildirilgan fikrlardan ko'rinib turganidek, ularga munosabat har xil. Ayrim manbalarda faqat mahalliy shevalarda ishlatiladigan so'zlar dialektizmlar qatoriga kiritiladi. Ba'zilarida esa badiiy adabiyotda uchraydigan va muayyan sheva vakillari tomonidagina qo'llaniladigan so'zlar dialektizmlar deyiladi. Yana boshqalarida esa dialektizmlarning faqat leksikaga taalluqli ekanligi ta'kidlanadi. Manbalar orasida U. Tursunov, J. Muxtorov va Sh. Rahmatullaevlar tomonidan bu borada bildirilgan fikrlar, ayniqsa, ajralib turadi. Sababi ular dialektizmlarning fonetik, grammatik, leksik va frazeologik kabi turlari mavjudligi ta'kidlaydilar. Bular hammasi o'zbek tilshunosligida dialektizmlarning hanuz yetarlicha tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi.

Rus tilshunosligida dialektizmlarga ancha keng ta'rif berilganligi va ularning xilma-xilligi ta'kidlanganligi xarakterlidir. Turli dialektlardan

olingan bo'lib, ba'zan badiiy asarda uslubiy, mahalliy koloritni berish, personajlarning nutqiy tavsifini aks ettirish maqsadida ishlatiladigan so'zlarga dialektizmlar deyiladi. Ular fonetik, grammatik, leksik-fonetik, semantik, leksik, frazeologik, etnografik, so'z hosil qiluvchi dialektizmlarga ajratiladi. Fonetikdialektizmlar shevning tovush tizimiga xos xususiyatlarda, grammatik dialektizmlar u yoki bu dialektidagi turlanish, so'z turkumlari shakllarini hosil qilish, bir turkumdan boshqasiga o'tishdagi grammatik o'ziga xosliklarda; leksik-fonetik dialektizmlar so'zlarning adabiy tildagidan boshqacha talaffuz qilinishida; semantik dialektizmlar umumxalq so'zining adabiy tildagidan o'zga ma'noda kelishida; so'z hosil qiluvchi dialektizmlar bir o'zakli adabiy sinonimlarga nisbatan boshqacha so'z hosil qiluvchi strukturada; leksik dialektizmlar adabiy tildagi predmetlarning mahalliy nomlarida; frazeologik dialektizmlar faqat shevalardagina uchraydigan iboralarida; etnografik dialektizmlar esa mahalliy premetlarning shevadagi nomlarida namoyon bo'ladi.

Rus tiliga oid yana bir manbada dialektizm so'zining grekchadan olingan bo'lib, shevani anglatishi, adabiy tilda ishlatiladigan hududiy dialektlar uchun xarakterli bo'lgan til xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar ekanligi ta'kidlanib, ular, o'z navbatida, fonetik, grammatik, so'z hosil qiluvchilarga ajratilgan holda, leksik dialektizmlarga etnografizmlar, adabiy tilda sinonimlari mavjud bo'lgan asl dialektizmlar va adabiy tildagidan boshqa ma'nodagi semantik dialektizmlarga bo'linadi.

Ushbu maqolada turk xalq qo'shiqlaridagi dialektlarni fonetik, morfologik va leksik jihatdan o'ziga xosliklari tahlil ostiga olinadi.

### **Fonetik dialektizmlar**

*Fonetik dialektizmlar*, asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Turk xalq

qo'shiqlarida fonetik dialektizmlarning bir qancha turini kuzatish mumkin.

- I. **b** tovushi **m** tarzida talaffuz etilgan holatlar:

Ahu kimi gözlerin  
Şirin şirin sözlerin  
Sen **menimsen men** senin  
Niye lazım sözlerin (s. 104)  
Eyvah Dimme Dimme  
Nazlı yar Dimme  
**Men** özüm sarhoş  
Sen şarap verme (s. 196)

Bu holat, asosan, Sharqiy hududlar dialekti tarkibiga kiruvchi Kars viloyatining xalq qo'shiqlarida ko'zga tashlandi. **b** tovushining **m** tarzida talaffuz etilishi, asosan, 1-shaxs-son birlik kishilik olmoshida kuzatildi (*ben-men*).

- II. **k** tovushi o'rnida **g** tovushi kelgan holatlar:

Keklik idim vurdular  
**G**anadımı **g**ırdılar  
Daha ben ne idim ki  
Anamdan ayırdılar (s. 151)  
Merdimenden endim endim yıkıldım  
Mevlam izin verdi gine dikildim  
Her çiçekten aldım aldım takındım  
**G**ırmızı gül sende **g**aldı tamahdım (of of) (s. 81)

Yuqorida xalq qo'shiqlari G'arbiy hudud dialektiga mansub bo'lib, bu hududlarda k tovushi g tarzida talaffuz qilinadi: kanadımı kırdılar - **g**anadımı **g**ırdılar; kırmızı - **g**ırmızı; kaldı - **g**aldı v.h.

#### Grammatik dialektizmlar

- I. *Hozirgi zamon qo'shimchasi -yor ning -yo shaklida kelishi:*

Turk tilida hozirgi zamon yasovchi **-yor** qo'shimchasining har bir dialektal hududga xos o'z shakllari mavjud bo'lib, bizning kuzatuvimiz ostidagi asosiy manbada turk xalq qo'shiqlarida Turkiyaning g'arbiy hudud dialektiga xos **-yo** shakliga ko'p bora duch kelindi:

Köprüden geçemiyom  
Az doldur içemiyom diloy loy  
Halden bilmez diloy loy  
Söz anlamaz ne fayda (s. 135)

Mazkur to'rtlikg'arbiy hudud dialektlari tarkibi kiruvchi Kirsheher hududiga mansub xalq qo'shig'i bo'lib, unda hozirgi zamon yasovchi -yor qo'shimchasi - **yo** shaklida kelgan. Ya'ni bu o'rinda **-yor** qo'shimchasi tarkibidagi **r** tovushi tushib qolgan va undan keyin 1-shaxs birlik shaxs-son **-m** qo'shimchasi qo'shilgan.

Bu kabi holatlarni Malatya, Chukurova, Zonguldak, Tokat kabi hududlarga xos xalq qo'shiqlarida ham uchratishimiz mumkin:

Atam dedim atamiyom  
Satam dedim satamiyom  
Gece gündüz yatamiyom  
Güzel bu nasıl sevdaymış (s. 25)  
Ağam Adanalı paşam Adanalı  
Evde duramiyom sana dadanalı  
Sebebim sen oldun şişman delikanlı  
(s. 125)

(Aman ey aman of) Gidiyom gid

emiyom  
Az doldur içemiyom  
(Yandım aman yanasın aman öldüm a man)  
Sen benden geçtin ama  
Ben senden geçemiyom (Vay Vay)  
(s. 233)

Gidiyom gidemiyom

Sevdim terkedemiyom  
Sevdiğim pek gönüllü  
Gönlünü edemiyom (s. 69)

- II. *Kelasi zamon-acak/-ecek qo'shimchasining -aca/-ece shaklida kelishi:*

Kabağın kökeniyim  
Sapının bükeniyim  
Ben güzeli **alacam**  
Çirkine tövbeliyim (s. 139)

G'arbiy hudud shevasi xos bo'lgan xalq qo'shiqlarida kelasi zamon -acak/-ecek qo'shimchasining -aca/-ece shaklida kelishholatlari kuzatildi (**alacam-alacağum**).

- III. *Noaniq o'tgan zamon qo'shimchasining bir xil ko'rinishda kelishi:*

Turkiyaning shimoliy-sharqiy hudud dialektiga xos xalq qo'shiqlarida noaniq o'tgan zamon qo'shimchasi **-miş, -mü, -mü, -mü**

ning faqat bir xil **-miş** shakli qo'llanilganligi kuzatildi:

Dost hasreti zor **imiş**  
Her dem ahuzar **imiş**  
Dert adamı yer **imiş**  
Yine gönlüm hoş değil (s. 101)

IV. *Jo'nalish kelishigi o'rnida tushum kelishigi*  
*'qo'shimchasining kelishi:*

Davuluma vurdim turayı  
Dolandım geldim **burayı**  
İki (de) gözüm (de) tahir Efendi'm  
Bugün bırakmam bu sırayı (s. 153)

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida tushum kelishigining kelishi holati, asosan, o'rin-joyga ishora qiluvchi olmoshlarda kuzatildi. Yuqorida keltirib o'tilgan namunada ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin: **burayı** aslida **buraya** ma'nosidadir. Gelmek (kelmoq) fe'li o'zidan keyin yo jo'nalish yoki chiqish kelishigi qo'shimchasi olgan ismni talab etadi. G'arbiy hudud shevalariga xos bo'lgan xalq qo'shiqlarida esa, joy nomlarini bildiruvchi yoki ularga ishora qiluvchi so'zlardan keyin jo'nalish kelishigi o'rnida tushum kelishishigi qo'shimchasi qo'llanilishi holatlari aniqlandi.

#### *Leksik dialektizmlar*

Ma'lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so'zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Turk xalq qo'shiqlarida bunga ko'plab namunalarni uchratishimiz mumkin.

Melek misin yeşil **dallar** giyersin  
Cellat misin tatlı cana kıyarsın  
Çocuk musun el sözüne uyarsın (s. 79)

Ushbu qo'shiq Kutahya hududiga oid xalq qo'shig'i hisoblanib, bu hududda **dal** so'zikiyim ma'nosini anglatib keladi. Ya'nikim, qo'shiq qahramoni *malakmisan yashil kiyim kiyarsan* deb o'z yoriga murojaat qilmoqda. Bundan tashqari Kutahya shevasida **merak etmek** (xavotir olmoq) ma'nosini ifodalash uchun **kayurmak** so'zidan foydalanishadi. Buni quyidagi xalq qo'shig'i misolida ko'rishimiz mumkin:

**Kayurma** sevdiğim gün böyle kalmaz  
Yanar yüreğimin ateşi sönmez (s. 79)

Sharqiy hudud dialekti tarkibiga kiruvchi Gumushhane hududiga mansub xalq qo'shiqlarida **pencere** (deraza) ma'nosini **toplu** so'zi orqali berish holatlari kuzatildi:

Karşidan gel göreyim

**Topludan** gül vereyim

Sınanmamış güzelsin

Nasıl gönül vereyim (s. 197)

Hiç ulu kavakta (anam) meyve biter mi

Oğulsuz evlerde (anam) **tütün** tüter mi

Çağırın anamı (anam) gele yanıma

(s. 205)

G'arbiy hudud shevalarida *ocak* (*o'choq*)so'zi o'rnida **tütün** so'zi qo'llaniladi.

Davulumun ipi kaytan

Sırtımda kalmadı **mintan**

Ver efendim bahşışımı

Bayrama alayım **mintan** (s. 93)

Turkiyaning shimoliy-sharqiy va g'arbiy hudud shevalarida kiyim so'zi o'rnida **mintan** dialektidan foydalaniladi. Bu dialektga qo'shiq matnlari tarkibida ko'p bora duch kelindi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: turk xalq qo'shiqlarida dialektizmlar qo'shiq tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan muhim leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Dialektizmlarning fonetik, grammatik va leksik turlari xalq qo'shiqlari tarkibida keng o'rin egallagan.

Har bir qo'shiq tarkibida uchraydigan dialekt birliklar hududiy jihatdan tahlil qilindi. Natijada turk xalq qo'shiqlarining har bir hududga xos dialektlari aniqlanib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritildi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, turk xalq qo'shiqlarida g'arbiy hudud dialektiga xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik birliklar sharqiy hamda shimoliy-sharqiy hudud dialektlariga nisbatan salmoqli o'rin egallaydi.

Tahlilga tortilgan 175 ta xalq qo'shig'i materiallari asosida to'plangan dialekt birliklar 100% deb olinadigan bo'lsa, shundan:

- g'arbiy hudud dialektlari – 60%,
- sharqiy hudud dialektlari – 25%,

- shimoliy-sharqiy hudud dialektlari – 15% ni tashkil etadi.

Mazkur natijalar turk xalq qo'shiqlari tilida g'arbiy hudud dialektlarining ustuvor mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

## References:

1. Akhmanova, O. S. (1966). *Slovar lingvisticheskikh terminov*. Moskva.
2. Caferoğlu, A. (n.d.). *Anadolu dialektolojisine dair bir deneme*.
3. Doniyorov, A. (1990). *Sheva unsurlarining badiiy asarlarda qo'llanishi*. O'zbek tili va adabiyoti.
4. Fayzullayev, B. (1977). *Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni*. O'zbek tili va adabiyoti.
5. Fayzullayev, B. (1978). *Badiiy adabiyotda dialektizmlarning stilistik vazifalari*. In *Tilshunoslik masalalari*. Toshkent: Fan.
6. Fayzullayev, B. (1979). *Dialektizm v khudozhestvennykh proizvedeniyakh*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
7. Kamariddinova, M. E. (2022). THE STRUCTURE OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRESCHOOL ENGLISH TEACHERS. *International Journal of Pedagogics*, 2(07), 1-4.
8. Karahan, L. (2014). *Anadolu ağızlarının sınıflandırılması*. Ankara.
9. Kowalski, T. (1931). Osmanisch-Türkische Dialekte. *Encyclopaedia of Islam*, 4, 991–1011.
10. Normurodov, R. (2000). *Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari (ayrim lug'aviy va uslubiy jihatlar)*. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
11. Yo'ldoshev, B. (1979). *Said Ahmad asarlarida dialektizmlarning stilistik xususiyatlari*. In *O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari*. Samarqand.
12. Yuldashova, N. M., Moydinova, E. K., Abdullayeva, D. M., Atakulova, E. T. S., Kayumova, G. A., Turgunova, F. M., & Xakimjonova, M. E. (2025). A COMPETENCY-BASED INTEGRATIVE FRAMEWORK FOR TEACHING ORAL COMMUNICATION IN TERTIARY EDUCATION. *Lex Localis*, 23(S6), 3504-3511.